XALQ DEPUTATLARI JONDOR TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 27 - iyul VI-61-137-2-35-K/22 Jondor tuman hokimligi

Ko‘sala qishloq aholi punktini Boliob mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritish munosabati bilan Xumin va Boliob mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga hamda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2013 yml 22 aprelь O‘RQ-350) ga asoslanib, Jondor tumanidagi Xumin mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Ko‘sala qishloq aholi punktini Boliob mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritish munosabati bilan Xumin va Boliob mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi Xumin mahalla fuqarolar yig‘inining 2022 yil 2 apreldagi 4-sonli yig‘ilish bayoni va iltimosnomasini muhokama qilinib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xumin mahalla fuqarolar yig‘inining 2022 yil 2 apreldagi 4-sonli yig‘ilish bayoni va iltimosnomasi ma'qullansin.

2. Ko‘sala qishloq aholi punktini Boliob mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritish munosabati bilan Xumin va Boliob mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarini o‘zgartirish kiritilsin.

3. Jondor tumani hokimligi moliya bo‘limi (U.Yangiyev), mazkur qarordan kelib chiqib tuman mahalliy byudjet parametrlariga tegishli o‘zgartirish kiritish bo‘yicha taklif kiritsin.

4. Jondor tumani statistika bo‘limi (K.Ismoilov), mazkur qarordan kelib chiqib, statistik hisobotlariga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qaror “Jondor ovozi” gazetasida e'lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari N.Axmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Raisi **S.Hikmatov**